

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*I son, Dekabr*

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI OSHIRISHDA ISLOM QADRIYATLARI VA MA'RIFATINING ROLI

**Saparova Gulbaxar Aytbaevna**

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**ANNOTATSIYA:** Maqolada bugungi kunda yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy-demografik guruh hisoblanib, ular ayrim umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi, jumladan, zamonaviylik va bilimlilik, yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchanlik, ijtimoiy jihatdan harakatchanlik masalalari muhokama qilinadi. Yuksak ma'naviyatini tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy etuklik kabi tushunchalar tafsiflanadi. Shuningdek, bugungi kunda yoshlar o'rtasida ta'lif turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish, kasbiy jihatdan o'sish va xizmat bo'yicha ilgarilash kabilalar asosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi.

**Kalit sózlar:** shaxs, jamiyat, oila, kasb, mehnat, axloq, ma'naviyat, ma'rifat, millat, jamoa, ta'lif, tarbiya, zamonaviylik, bilimlilik, milliy g'oya, milliy manfaat, barkamol avlod, milliy qadriyatlar, madaniyat, diniy qadriyatlar

**Ключевые слова:** личность, общество, семья, профессия, труд, этика, духовность, просвещение, нация, сообщество, образование, воспитание, современность, знание, национальная идея, национальный интерес, идеальное поколение, национальные ценности, культура, религиозные ценности

Yoshlarni tarbiyalash masalasi bugungi O'zbekiston uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo'lib bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik va qat'iylik bilan davom ettirish mazkur sohadagi asosiy mezonga aylandi. Bu borada jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch-milliy g'oya, milliy manfaatga xizmat qiladigan qadriyatlarni, ilg'or demokratik qoida va tushunchalarni aniq-ravshan tasavvur etish, ularni o'rganish, borini asrab-avaylash, boyitish, rivojlantirish, xalqni, avvalo, o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodni ana shu bilim va ko'nikmalar bilan tarbiyalash ma'naviy tarbiya sohasidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi.

Yoshlar bu jamiyatdagi ijtimoiy-demografik guruh hisoblanib, ular ayrim umumiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi: jumladan, zamonaviylik va bilimlilik; yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchanlik; ijtimoiy jihatdan harakatchanlik va boshqalar. Barkamol yoshlarda qadriyatlarni qayta baholash kattalarga nisbatan o'zgacharoq, yani ularda ehtiyojlar va ideallar, axloqiy meyorlar faol o'zlashadi. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida ta'lif turini tanlash va uni egallash, mehnat jarayoniga kirish, oilani shakllantirish,

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*I son, Dekabr*

kasbiy jihatdan o'sish va xizmat bo'yicha igarilash kabilar asosiy muammolardan bo'lib hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, tarbiya avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonana sog'lom, ma'nан barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzlksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatini tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy etuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha-bu ma'naviy tarbiyadir. Ma'naviy tarbiya keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini ifodalaydi. Har qanday ma'naviy tarbiya ma'naviy va diniy qadriyatlar uyg'unligida olib borilsa, bu jarayonda shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki unda ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi.

Albatta, bugungi yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularni ma'naviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz baxobar qilib borish, bu qadriyatlarning inson, jamiyat taraqqiyotidagi mushtarak, garmonal o'rni beqiyosligini anglab etish o'rinnlidir. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy hayotidagi eng dolzarb masalalardan biri barkamol yoshlarni ma'naviy va diniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ertangi kunimizning haqiqiy vorislari sifatida kamol toptirish. Diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzda insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga munosabatini namoyon qiladi. Diniy qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatib, gohida ideal sifatida kishilarni samarali faoliyatga undasa, gohida ma'naviy mezon, axloqiy talab, qonun-qoida sifatida odamlarning xatti-harakatlari va turmush tarzini, intilish va ehtiyojlarini belgilaydi. Ularning faoliyatlarini boshqarib yoki yo'lga solib turadi, yani regulyativ funktsiyasini bajaradi.

**Abu nasr Forobiy: "Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmg'i kerak". [1]**

Bugungi kunda odob-axloq borasidagi ma'naviy va diniy qadriyatlarga rioya etish, jamiyatning barcha a'zolarini chin samimiyat asosida hurmat qilish, vijdonli, insofli, halolbo'lish, millat, jamiyat, davlat manfaatlarini unutmagan holda fidoyilik bilan mehnat qilish, insonni ulug'lash, qadriyatlarni o'rganish va ularga amal qilish, hurmat qilish, hayotga tatbiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonini mazkur qadriyatlarga asoslanib amalgaloshirishni davr taqozo etadi. Zero yoshlar chin ma'noda ma'naviy va diniy qadriyatlardan qanchalik ko'p saboq olsa, ularga ishonsa va ularga amal qilsa, yoshlarning tafakkuri shunchalik boyib, ma'naviy barkamolligi yuksalib boradi. Biz buni dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligiga to'la amal qilib, IX-XII asrlarda ilk, XV-XVI asrlarda so'nggi Sharq uyg'onish davrini vujudga keltirgan buyuk ajdodlarimiz faoliyatida ko'ramiz.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*I son, Dekabr*

Diniy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida tarbiya topgan yoshlar adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik ruhini, taraqqiyot yo'lidagi olijanob maqsad-muddaolarni teran anglab etib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilishadi. Ularda hurfikrlilik, mutelik va jur'atsizlikdan holi bo'lган, bilimi va kuchiga ishonib yashash, o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lish fazilatlari kuchayadi va bu mushtaraklik davlatimizdagi turli millat va din vakillarining erkin faoliyati, hamjihatligi, haq-huquqlarini kafolatlaydi.

Diniy qadriyatlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma'naviy tarbiya asosida mamlakatimizdagi turli diniy e'tiqod va maslakdagi fuqarolar uchun Vatan yagonaligi g'oyasini ilgari surish, inson va jamiyat, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish zamirida jamiyatni birlashtirish, barqarorlashtirish imkoniyatlari mujassamdir. Shu tariqa turli e'tiqodlar, xilma-xil qarashlar va munosabatlarni uyg'unlashtirish masalasi insonning ma'naviy-ruhiy etukligi va komilligi bilan bog'liq holda tushuniladi.

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko'proq himoya qilmog'i kerak. Odobu tarbiya vositasida yaxshi xulqlaarni o'rgatish, yomonliklardan qaytarish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg'otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi. [2]

Kishilik ja'miyati shakllanishi jarayonida qator bosqichlarni bosib o'tdi. Ma'lumki, inson qator moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ega bo'lib, hayoti davomida imkoniyati darajasida ularni qondirib boradi. Ehtiojoni qondirishning asosiy omili mehnatdir. Jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida ko'nlikma, malaka tajriba shakllanib boradi. Kishida vujudga kelgan tajriba oqibatida axloqiy munosabatlar shakllanadi, atrof muhitda munosabat, ma'lum bir ongli yondashuv vujudga keladiki, buni fan tilida dunyoqarash deymiz. Albatta, ongli ravishda bo'lsada ilmiy dunyoqarash bilan ongli odam qarashida katta farq bor. Ilmi komil insontahlilga moil bo'lsa, ongli odam ko'p ko'rona taqlidga, isbotsiz –asossiz turli afsona, rivoyat va ta'limotlarga ishonaveradi.

Bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zaminini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunda boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqr ochib berish maqsadida biz poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistondagi islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildiq. Nega deganda, "Jaholatga qarshi- ma'rifat" shiori ostida mana shunday markaznitashkil etishni bugun davrning o'zi taqozo etmoqda. Ushbu markazni mashhur Xastimom majmuasi hududida tashkil etish, bu erda yurtimizdan etishib chiqqan buyuk islom allomalari, olim va mutafakkirlari, jahon madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo'shgan ulug' shoir va adiblar, rassom va hattotlarga oid boy ma'lumotlarni mujassam etish ko'z ga tutilmoqda". [3]

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*I son, Dekabr*

Bizning milliy g'oyamiz bunyodkorlikka etaklovchi g'oyadir. Bunyodkor g'oya loqaydlik, befarqlik, beparvolikka qarshidir. Bilimsizlik jaholat manbai bo'lib, inson ma'naviyatini kuchsizlatiradi va loqaydlikka olib keladi. Loqayd insonda bilimga intilish sust kechadi, unda atrof-muhitga e'tiborsizlik hislati kuchli bo'ladi. U hatto Vatan taraqqiyoti va uning yutuqlariga ham befarq bo'ladi. Ma'lumki loqaydlik hamda beparvolik o'z-o'zidan terrorizm va uning oqibatlari uchun zamin yaratib beradi. Loqayd va beparvo insonlar, ayniqsa, yoshlar dushmanlar to'rlariga tez ilinib qoladilar va terroristik harakatlarga qo'shilib qolishalri hech gap emas. [4]

Yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning muhim vazifalaridan yana birlararda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishdir. Millatlararo muloqot-bu turli millat vakillarining mehnat, kundalik turmush, oila, maktab va maktabdan tashqari faoliyatdagi o'zaro muloqotini anglatadi va bir millat vakilining boshqa millatlar yaratgan milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, ularning tili, milliy an'analari, milliy tuyg'u va g'ururi, tarixi, adabiyoti, urf-odatlarini hurmat qilish, boshqa millat vakillari bilan o'zini baland tutmasdan, ularni o'ziga teng tutib muloqotda bo'lmoqlik, boshqa millat tomonidan yaratilgan barcha yaxshi narsalarni qabul qilishga tayyorlikni o'zida shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Insonlar ongida shakllangan qadriyatlар, porloq kelajak, ozod va obod vatan orzusida sobitlik, erkin va farovon hayot qurishga intilish va ishonch sog'lom e'tiqod natijasi, ifodasi yoki namoyon bo'lishidir. Yoshlar ongida so'glom e'tiqodni shakllantirish muammosi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Abu Hamid G'azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi:"Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va syratdan holi gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga etsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta, bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergen har bir kishi sherikdir. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va haloq bo'ladi. Bunda gunoh yaki shu ko'yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi",[5] deydi.

**Immunitet tushunchasi, umuman olganda, tibbiy tushuncha bo'lib, tirik organizmning ichki muayyanligini saqlashga, turli kasallik va infektsiyalardan himoya qilishga qodirligini o'zida aks ettiradi.**

**Mafkuraviy immunitet tushunchasida esa, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatni turli zararli, g'arazli vayronkor ekstremistik g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tarbiyaviy tizim tushuniladi.**

**Shu nuqtai nazardan, har qanday g'oya kishilar ongini, qalbini egallab, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy, ajralmas qismi bo'lgandagina maqsadga da'vat etuvchi kuchga aylanadi.**

**Shu maqsadda turli yovuz ekstremistik g'oyalarning ta'siriga berilmasligi uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish, mafkuraviy dahlsizlikni ta'minlash zarur.**

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*I son, Dekabr*

Buning uchun, birinchidan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv, voqelikni to'g'ri aks ettiradigan, Vatan va xalq manfaatiga xizmat qiladigan umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'miynlaydigan bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, millat, jamiyat, davlat, qadriyatlar tizimi mafkuraviy imkoniyatlarini belgilab beradi va qadriyatlar, urf-odatlar mustahkam bo'lsa, mafkuraviy tajovuzlarga berilmaydigan qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi millat, millat, jamiyat, davlatning aniq maqsadi bo'lishi kerak va shu maqsadni amalga oshirishda sobitqadamlik va irodali bo'lishi zarur. Shundagina har qanday mafkuraviy tazyiqta bardosh bera oladi.

Umuman, diniy-ekstremistik g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikani o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy profilaktika tushunchasida yot ekstremistik g'oyalarning kirib kelishining oldini olishga qaratilgan ijtimoiy institutlar (tarbiyaviy tashkilot) tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab olishi zarur.

Mafkuraviy immunitetni amalga oshirishda g'oyaviy ta'sirning turli usullaridan foydalanadi. Mafkuraviy profilaktikada tezkor va qisqa suratlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich sobitqadamlik bilan ish olib boriladi. Sog'lom milliy istiqlol g'oyasini xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar: oila, maktab, o'quv yurtlari, mahalla, jamoat tashkilotlari va davlat tizilmalari hamkorlikda ish olib borsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bu jarayonda Vatan, xalq, millat manfaatlarini do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va diniy bag'rikenglikni ulug'lovchi hadislardan, ertak, doston, qo'shiq, raqs va boshqa madaniy-ma'naviy qadriyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonda voyaga etayotgan har bir yosh avlodni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, imon-e'tiqodi butun, milliy g'oya bilan qurollangan, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalashda, ongu tafakkurini rivojlantirib, hayotga, mehnatga, mulkka munosabatini tubdan o'zgartirishda, o'z fuqarolik burchini chuqur anglab, Vatanga muhabbat va sadoqat, dahldorlik tuyg'usi bilan yashashida, o'z taqdiri bilan mushtarak deb his qilishida asrlar osha yurtimizda yashab kelayotgan dunyoviy-diniy qadriyatlarning o'rni beqiyos. Shuningdek, barkamol yoshlarda zamonaviy tafakkurni tarbiyalashda dunyoviy va diniy qadriyatlar omilining ahamiyatini oshirish usullari va ilg'or tajribalarini aniqlash, ularni takomillashtirish zarur.

## **TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR**

*I son, Dekabr*

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Sh.Mirziyoev.Islom dinini muhofaza qilishga chaqirdi. 2016 yil 18 oktyabr.
- 2.Mirziyoev Sh.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T. O'zbekiston. 2017.
- 3.Sharipova D. Loqaydlik va beparvolikka qarshi kurashda ma'naviy tarbiyaning o'rni. Toshkent islom universiteti. 2017.B.185-186.
- 4.Abu nasr Forobiy. Baxt saodatga erishish haqida. Risolalar. T. 2002.
5. Abu Xolik Muhammad al-G'azzoliy. Ihyo ul-ulum ad-din. 1-kitob. T.Movarounnahr. 2003.
6. Saidov I. Odob-axloq –inson siynati.